



O‘ZBEK TILI ILMIY MATNINING UMUMIY XUSUSIYATLARI

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

10.00.00- Filologiya fanlari

Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti

Umarovadildora466@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ilmiy matnning shakllanishi, uning ijtimoiy va kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘liqligi, uslubiy xususiyatlari, til birliklaridan foydalanish xususiyati, sintaktik qurilishi, mantiqiy izchilligi, obyektivligi va ifodaning qat’iyligi keng tahlil qilinadi. Matnda ilmiy uslubning sotsiolingvistik, psixolingvistik va logik-lingvistik jabhalari hamda ilmiy matnni tashkil etuvchi gaplarning strukturaviy xususiyatlari yoritilgan. Ilmiy nutqda keng qo‘llaniladigan qo‘shma gaplar, kirish konstruktsiyalar, uyushiq bo‘laklar, aniqllovchi va ravishdoshlar orqali fikrni aniq va izchil ifodalash zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, ilmiy uslubning janrlar doirasidagi tafovutlari va zamonaviy ilmiy matn turlarining o‘ziga xos sintaktik belgilariga ham alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Ilmiy matn, ilmiy uslub, sintaksis, fikr izchilligi, obyektivlik, kirish konstruktsiya, qo‘shma gap, sotsiolingvistika, psixolingvistika, mantiqiy qat’iylilik, til birliklari, aniqllovchi, ravishdosh, stilistika, ekspressivlik.

GENERAL FEATURES OF THE UZBEKISTAN SCIENTIFIC TEXT

Umarova Dildora Mirzamurod qizi

UDC: 10.00.00 – Philological Sciences

Master’s student of Shahrisabz State Pedagogical Institute

Umarovadildora466@gmail.com

Abstract:

This article provides an in-depth analysis of the formation of scientific texts, their connection to social and communicative needs, stylistic features, the use of linguistic



units, syntactic structure, logical coherence, objectivity, and clarity of expression. It explores the sociolinguistic, psycholinguistic, and logical-linguistic aspects of scientific style, as well as the structural characteristics of sentences that constitute scientific texts. The necessity of expressing ideas clearly and coherently through the use of compound sentences, introductory constructions, coordinated elements, attributes, and participial phrases commonly used in scientific discourse is substantiated. Furthermore, attention is given to the genre-specific differences within scientific style and the distinctive syntactic features of modern types of scientific texts.

Keywords: Scientific text, scientific style, syntax, logical coherence, objectivity, introductory construction, compound sentence, sociolinguistics, psycholinguistics, logical consistency, linguistic units, attributive modifier, participial phrase, stylistics, expressiveness.

Ilmiy matn muayyan ijtimoiy ehtiyojlar natijasida, ilmiy axborotni saqlash va uzatish zaruriyati bilan bogʻliq ravishda shakllangan. “Axborot” atamasi ostida “mazkur nutqiy axborotda mujassamlashgan, uzatish, saqlash hamda qayta ishlash obyekti deb qaraluvchi maʼlumotlar tushuniladi”. Maʼlumki, axborot ikki turli boʻladi: asosiy va qoʻshimcha axborot. Birinchi turdagi asosiy axborot orqali tilning intellektual-kommunikativ vazifasi amalga oshirilsa, ikkinchi turdagi – qoʻshimcha axborot orqali tilning boshqa (qoʻshimcha) vazifalari amalga oshadi. Xususan, kishi his-tuygʻusini ifodalaydigan vazifa ana shunday tavsifdadir.

Ilmiy matnning uslubiy tahlili, asosan, tilning birinchi turdagi vazifasini-intellektual-kommunikativ vazifasini qamrab oladi.

Ilmiy matn koʻp jabhali jarayondir. Shu bois, u turli jihatdan tadqiq etiladi. Unda, eng avvalo, sotsiolingvistikaga keng oʻrin beriladi. Sotsiolingvistik jabhaga koʻra, fan tillarning umummilliy adabiy tilning qaror topishidagi roli, sotsial (professional) jargonlar va ilmiy tilning oʻzaro taʼsiri (qoʻshma vosita sifatida), sunʼiy tillarni qoʻllash, jamiyatning ilmiy-texnikaviy tili rivojlanishiga taʼsiri (jumladan, terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish masalasi) kabi masalalar oʻrganiladi.



Ilmiy matnning psixolingvistik tomoni ham mavjud bo'lib, unda tabiiy til hamda sun'iy simvolikani o'qitish, shuningdek, ilmiy ijod jarayonidagi rolini o'rganish va boshqalar nazarda tutiladi. Logik-lingvistik jihat ilmiy matnning yana boshqa jabhasini tashkil qiladi. Bu jabha hisoblash mashinalarini qo'llash orqali mashina tarjimai algoritmlarini yaratish bilan bog'liq masalalarni o'rganadi. Bu jihatdan ilmiy matn kommunikativ vazifa bajaruvchi ko'rinish kasb etadi.

Ilmiy adabiyot dalillik materiallarga boyligi, axborotning aniq va ixchamligi bilan xarakterlanadi.

Ilmiy axborot mazmuni dalillar, voqea-hodisalarning izohi, ularni o'rganish va tushuntirish, qonuniyat, qonunlarning bayon etilishidan iborat. Dalillarni jamg'ara borib, tajribalar o'tkazib, tahlil qilib ma'lum xulosalar chiqariladi.

Ilmiy asarning vazifasi-muayyan qoidalar va taxminlarni isbotlash, ularni dalillash, ilmiy muammolarni aniq va izchil bayon etishdan iborat. Shu sababli ilmiy matn fikrlar zanjiridan iborat bo'ladi. Bayon etilayotgan fikr (mazmuni) bilan uslub o'rtasida bevosita aloqa mavjud bo'ladi.

Ilmiy matn uchun abstraksiya (mavhum-umumlashganlik), mantiqiylik, obyektivlik, shaxssizlik, aniqlik kabi xususiyatlar xosdir.

R.A.Budagov nutqning ilmiy uslubini o'rganish borasidagi izlanishlarning natijasizligi haqida quyidagilarni qayd qiladi: "Shu vaqtgacha ilmiy uslub bilan kim shug'ullanishi lozim - olimlarning o'zimi yoki lingvistlarmi" - degan masala noaniqligicha qolyapti. Shuni qayd etish lozimki, jahon adabiyotidagi ilmiy uslub tadqiqiga bag'ishlangan tadqiqotlarning katta qismi adabiyotshunoslar qalamiga mansubdir.

Turli uslubga xos matnlarning sintaktik belgilarini ilmiy asoslash nutq uslublarini sistema sifatida yoritishning asosiy shartlaridan hisoblanadi. M.Verli o'rinli qayd qilganidek, "**stil**"(**uslub**) so'zga nisbatan gapda ko'proq shakllanadi.

Odatda, ilmiy matn haqida fikr yuritilganda, turli fanlarga oid asarlar, maqolalar, darslik va qo'llanmalar asosiy obyekt qilib olinadi. Bizningcha, ilmiy matn tili haqida fikr yuritilganda, faqat an'anaviy janrlar bilan chegaralanib qolish to'g'ri xulosalarga olib kelavermaydi. Gap shundaki, hozirgi sharoitda yangi fanlarning shakllanayotganligi, tadqiqot metodlarining boshqatdan taqsim qilinayotganligi, jamoa ijodining jamiyatdagi roli ortib borayotganligi, axborot sohasida yirik



o'zgarishlar yuz berayotganligi – bular hammasi hozirgi zamon ilmiy matnning murakkab va ko'p janrli sistemasida o'z aksini topmoqda: tezislar, annotatsiya, ilmiy maqola kabi janrlar shakllandi. Bularda ilmiy matnga xos umumiy sintaktik xususiyatlar bilan birga, har birining o'ziga xos ayrim sintaktik belgilari shakllandi. Bu hol ilmiy matn haqida fikr yuritilganda faqat an'anaviy janrlar bilan chegaralanib qolmaslikka undaydi.

Ilmiy matn sintaksisining o'ziga xos belgilari haqida fikr yuritilganda, eng avvalo, ularning ifoda maqsadi va vazifalari bilan bog'liq ekanligi qayd qilinadi. Ilmiy matn uchun aniqlik, mantiqiy qat'iylik, obyektivlik zarurdir. Ilmiy matn uslubining boshlanishi, unda o'ziga xos belgilarning kengaya borishi, ifodaning izchilligi, uning mantiqan to'g'ri qabul qilinishiga qaratilgan bo'lishi – bularning barchasi uslubda ifodaning hamma intellektual elementlariga keng murojaat qilinishi taqozo etadi.

Ilmiy matn oldindan o'ylanganligi, monologik xarakterda bo'lishi, tanlanganligi, adabiyliigi, barcha shakllari (so'z qo'llash, sintaktik qurilish va boshqalar)ning milliy adabiy til me'yorlariga mos bo'lishi bilan ham belgilanadi. Ilmiy matn ayrim lisoniy vositalar va ularning qo'llanish ko'lamini belgilaydi. Bunda muayyan material va uni umumlashtirish, sabab va natija-isbot va xulosa, munosabatlari o'zaro bog'liq holda ifoda qilinadi. Ilmiy matnning murakkabligi, kuzatish, tajriba tufayli erishilgan xulosalarni sharhlashda turli mantiqiy munosabatlarni ifoda qiluvchi sintaktik vositalarga keng murojaat qilinishining asosiy sababi ham mana shundadir. Odatda, ilmiy ijodda kishining muhokama, munozaralari, boy mulohazali faoliyati ifoda qilinadi. Shuning uchun ham ilmiy matn qat'iy mantiqiy qurilishi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyat nutqning leksik tomoniga qanchalik taalluqli bo'lsa, sintaktik qurilishiga ham shunchalik aloqadordir. Ilmiy matnda qat'iy mantiqiy izchillik matn qismlarining uzviy bog'liq bo'lishiga xizmat qilinadi. Bunda har bir keyingi gap oldingi gapda ifoda qilingan fikrni to'ldirib boradi. Bu hol matn qurilishining tizma shaklda bo'lishini ta'minlaydi. Quyidagi matnga diqqat qilaylik: Hozirgi zamon domna pechi sutkasiga 1800-2000 t. cho'yan ishlab chiqaradi. Domna pechida olingan cho'yan temir bilan uglerod, kremniy, marganets, fosfor va oltingugurt qotishmasidan tarkib topgandir. Cho'yandagi uglerod miqdori ikki foizdan 6,67% gacha bo'lishi mumkin. Uglerod cho'yan tarkibida temir bilan



kimyoviy bog‘lanmagan holda, ya’ni erkin grafit ko‘rinishida, cho‘yanning butun massasi bo‘yicha yaltiroq qora dog‘ ko‘rinishida yoki temir bilan kimyoviy bog‘lanishda bo‘lgan sementit ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Oltingugurt cho‘yanni nihoyatda mo‘rt qiladi (metallning qizdirilgan holatidagi mo‘rtligi) va quyilish sifatini yomonlashtiradi, fosfor cho‘yanni sovuganda (sovuq holatida mo‘rt) tez sinuvchan qiladi. Demak, domna pechlarida eritib olinadigan cho‘yanlar ishlatilishiga ko‘ra quyma (kulrang) va oraliq (oq) cho‘yanlarga bo‘linadi. Quyma cho‘yanda uglerod ko‘pgina qismi temir bilan birikmagan, grafit ko‘rinishidagi erkin holatda bo‘ladi. Quyma cho‘yan sindirilganda, kulrang sirt hosil bo‘ladi. (Sarxoshyan G.N. Avtomobillarning tuzilishi va remonti. -T.: O‘qituvchi, 1994, 77- b.)

Yoki:

Kerenni o‘rab olgan g‘ovak qobiqni mezon qobig‘i, mezon buluti yoki mezon “po‘stini” deb ham ataydilar. Nuklon pi-mezonlar buluti bilan o‘ralgan, ular doimo paydo bo‘lib, yutilib turadilar. Aniqrog‘i pi-mezon buluti bilan keran birgalikda nuklonni tashkil qiladi. Protonda pi-mezon buluti musbat zaryadlangan. Biroq protonda musbat pi-mezonlardan tashqari neytral pi-mezondar buluti ham bo‘lsa kerak, albatta. Neytronning mezon po‘stinida ham musbat, ham manfiy pi-mezonlar mavjuddir. Unda neytral pi-mezonlar ham bor. Demak, “sof” pi-mezonlar bulutida nuklonning elektrik va yadro o‘lchamlari bir xil bo‘lishi kerak Ammo tajribalar bu o‘lchamlarning bir-biridan biroz farq qilinishini ko‘rsatdi. Nazariyotchilar qobiqda pion bulutidan tashqari pi-mezondan og‘irroq, hali ma'lum bo‘lmagan yana ikki xil neytral mezonlar bor deb, bu qarama-qarshilikni yechdilar¹. (Bekjonov R. Yadro fizikasi.-T.: O‘qituvchi, 1995. 71-75- 6.)

Matnlarda fikrlar mantiqiy izchillik bilan aniq bayon qilingan: keyingi har bir gap oldingi satrlarda aytilgan fikrlarni to‘ldirib borgan; oxirgi gapda esa undan oldingilarida ifoda qilingan fikrlar xulosalangan. Matndagi gaplar mantiqiy va grammatik jihatdan uzviy bog‘liqdir.

Odatda, ilmiy asarlar asosini mulohaza va isbot tashkil qiladi. Isbot aniq bayon qilinadi. Bunga ifodaning to‘liq bo‘lishi bilan erishiladi. Shuning uchun ham ilmiy

¹ Bekjonov R. Yadro fizikasi.-T.: O‘qituvchi, 1995. 71-75- 6.



matnlarda to'liq gaplar ko'proq ishlatiladi. Ularda gaplarning to'liqsiz holda bo'lgani fikr aniqligiga putur yetkazadi.

Ilmiy asarlarda ifodaning aniq va obyektiv bo'lishi, ularda substantiv so'zlarning, otlarning qaratuvchi va qaralmish birikmalarining ko'p qo'llanishi, kesimlarning ko'pincha ot-kesim shaklida bo'lishini taqozo qiladi. Dalillarga murojaat etaylik:

Alfa-parchalanish vaqtida uyg'ongan yadrolar hosil bo'lganligidan alfa-zarra energiyasining spektrida yadroning turli uyg'onish sathiga taalluqli bir necha chiziq mavjud. Juft-juft yadrolarda alfa-parchalanish, odatda asosiy holatda ro'y beradi.

(Bekjonov R. Yadro fizikasi.-T.: O'qituvchi, 1995. 85-b.)

Ilmiy ifoda uchun mantiqiy izchillikni ta'minlovchi ma'lum so'z tartibiga amal qilish tipikdir. Akademik I.I.Davidov qayd qilganidek, so'zlarning joylashishi uslubning eng nozik sirlaridandir. Bunda adabiy tilning grammatik qurilish talablariga amal qilinadi. Shu bilan birga, fikrni aniq, izchillik bilan ifoda qilish talablariga ko'ra ba'zan gap bo'laklarining tartibini o'zgartirish ham mumkin.

Bunda eganing gapda joylashish o'rni ko'zda tutiladi. Ilmiy uslubda gap ko'pincha ega bilan emas, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchi bilan boshlanadi. Misollar:

Aniqlovchi bilan: Ratsional va irratsional sonlar to'plamlari birgalikda haqiqiy sonlar to'plamini tashkil qiladi². **(Qabulov V.Q. Funktsional analiz va hisoblash matematikasi. - T.: O'qituvchi, 1996. 206-b.)**

Hol bilan: O'ninchi besh yillikda filologiya fani oldida turgan vazifalar ulug'vor va juda mas'uliyatlidir³. **(Shoabdurahmonov Sh. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996, 3-son. 13-b.)**

To'ldiruvchi bilan: Qo'shma so'zni belgilashda birorta ham grammatik qolip universal hukm chiqarish uchun asos bo'la olmaydi. **(Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. -.T.: O'qituvchi, 1990. 6-b.)**

Ilmiy matnning o'ziga xos belgilaridan yana biri unda qo'shma gap, unga xos murakkab ko'rinishlarning keng qo'llanishidir. Bunda qo'shma gap komponentlari chunki, shuning uchun, shu sababli kabi bog'lovchilar, fe'ning shart mayli, ravishdosh shakllari -ganday, -gandek affikslari, fe'l shakllari yordamida birikadi.

² Qabulov V.Q. Funktsional analiz va hisoblash matematikasi. - T.: O'qituvchi, 1996. 206-b.

³ Shoabdurahmonov Sh. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996, 3-son. 13-b.



Ilmiy matnda ma'lum xulosalarni ifoda qilishda ergash gapli qo'shma gaplarning bir necha turi qo'llanadi, Xususan:

a) o'ldiruvchi - daraja ergash gapli qo'shma gap:

Tabiatdagi eng kuchli o'zaro ta'sirlar ostida o'tadigan yadro reaksiyalari jarayonida ajralib chiquvchi yoki zarur bo'lgan tashqi energiyaning miqdori shunchalik katta bo'ladiki, ba'zan reaksiyaga kiruvchi zarra va yadrolarning harakatsizlikdagi energiyalariga nisbatan sezilarli darajada katta bo'lishi mumkin. **(Bekjonov R. O'sha asar, 140-6.)**

b) sabab ergash gapli qo'shma gap:

O'ta yuqori temperaturalarda o'tadigan reaksiyalar turiga kiruvchi termoyadro reaksiyalari haqida quyida alohida to'xtalamiz, chunki bu xil reaksiyalarning xalq xo'jaligidagi roli nihoyatda katta **(Bekjonov R. O'sha asar, 162-b.)**

d) shart ergash gapli qo'shma gap:

Agar gaz orqali elektr toki o'tkazilsa, shu tok atrofida yuzaga keladigan magnit maydon uni ingichka shnur shaklidagi plazmaga aylantiradi. **(Bekjonov R. O'sha asar, 162-b.)**

e) to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap:

"Italiya tarixining muammolari" degan to'plamga kelganda shuni aytish kerakki, u Italiyaning o'rta asr tarixiga, yangi va eng yangi tarixiga doir g'oyat xilma-xil muammolarni o'z ichiga oladi. **(Nuriddinov Z.R. O'sha asar, 135-b.)**

f) ega ergash gapli qo'shma gap:

Shunisi muhimki, kompaund yadroning uyg'onish energiyasi uning hamma nuklonlariga taqsimlanganligi sababli kompaund yadro tarkibidagi bitta ham nuklon bog'lanish energiyasini yengib chiqib keta oladigan darajadagi energiyaga ega emas. **(Bekjonov R. O'sha asar, 146- b.)**

Ilmiy uslub tabiatiga ko'ra, qo'shma gaplarning zidlov bog'lovchilari yordamida bog'langan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap tiplaridan ham keng foydalaniladi. Misollar:

Balanditay odamlarning ingichka yoki yo'g'on ichagida zararsizlik qiladi, u yo'g'on ichakda yashagan vaqtida odamga zarar yetkazmaydi, lekin bunday odamlar parazitning sistalarini tarqatadilar. **(Muhammadiyev A.M, Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996. 74- 6.)**



Qisqichbaqasimonlarda sezuv organlari va markaziy nerv sistemasi yaxshi taraqqiy etgan, ayirish organlari ko‘pincha bosh tomonida joylashgan, hamma avlodlarida neupleus deb ataluvchi lichinka davri bo‘ladi. **(Muhammadiyev A.M. O‘sha asar, 184- b.)**

Ilmiy matnda aniqllovchilar, sifatdosh va ravishdoshlar keng qo‘llanadi. Ko‘pincha, bunday konstruksiyalar ketma-ket kelib ifodaning aniq bo‘lishi uchun xizmat qiladi, Misollar:

Ko‘p qilli halqali chuvalchanglar birlamchi halqalilar sinfining avlodlaridan rivojlangan va hozirgi davrda nihoyatda xilma-xil ravishda dengiz hayotiga layoqatlashgan va shu munosabat bilan juda ko‘p turlar hosil qila olgan sinfdir. **(Muhammadiyev A.M. O‘sha asar, 181-b.)**

Krablarning bosh va ko‘krak qismi yaxshi rivojlanib, ko‘pincha yarim shar shaklidagi katta va mustahkam qalqon bilan qoplangan qorincha qismi ingichkalashib, dumsimon o‘simtaga aylangan. (Muhammadiyev A.M. o‘sha asar, 198 b.)

Ilmiy asarlarda uyushiq bo‘laklarga alohida va keng o‘rin beriladi, buning uchun bog‘lovchi vositalarga ko‘proq murojaat qilinadi. Bular matn qismlarining mantiqan bog‘lanishini ta‘minlaydi, fikrni o‘quvchi ongiga izchil yetib borishi uchun xizmat qiladi. Misol:

Matematik tahlil har xil tenglamalarni yechishda integratsiya yoki ketma-ket yaqinlashish usuli keng qo‘llaniladi. **(Qobulov V.K. Funksional analiz va hisoblash matematikasi. -T.: O‘qituvchi, 1996. 188- b.)**

Ilmiy matnlarda ekspressiyaning parallelizm, takror, ayrim gap bo‘laklari, ergash gaplarni ma‘lum maqsad uchun ajratish usullaridan keng foydalaniladi. Misollar:

Nihoyat, Furqat xalqimizning eng muqtadir ziyolisi sifatida zulmat o‘rniga nurni, tunga qarshi kunduzni, ahmoqlikka qarshi aqlni, jaholatga qarshi ma‘rifatni, tikanga qarshi gulni, zog‘larga qarshi bulbulni, nafratga qarshi muhabbatni, zulmga qarshi adolatni, o‘limga qarshi hayotni tarannum qiladi. **(Shayxzoda M. “Furqat va Muqimiy” to‘plami. –T.: Fan, 1996, 71- b.)**

Antigonaning butun qilmishlari ma‘budlar amri bilan joriy etilgan, garchi qog‘oz betiga yozilgan bo‘lmasa ham, odam bolasining diliga bitilib, asrlardan beri uning vijdonida yashab kelayotgan va har qanday podshohlarning hukmidan yuqori



turadigan adolat qonuni, haqiqat qonuni, or-nomus qonuni bilan taqozo etilgandir.

(Alimuhammedov A., Antik adabiyot tarixi. -T.: O‘qituvchi, 1999. 143- b.)

Ilmiy matnda ifoda qilinayotgan fikrlarning o‘zaro munosabatini ko‘rsatishda, kirish konstruksiyalar (demak, xulosa qilib aytganda, xullas, avval, birinchidan, nihoyat, binobarin, anglashiladiki, bizningcha, ...ning qayd qilishicha, ... ko‘rsatishicha kabilar)dan keng foydalaniladi.

Misollar:

Demak, ega, to‘ldiruvchi, qaratuvchi, sifatlovchi, hol vazifasida kelishi uchun negiz to‘liq grammatik shakllanadi, so‘z holatida bo‘ladi, Ko‘rinadiki, gapning hokim komponenti va birikmaning tobe komponenti so‘z bilan ifodalanadi.

(Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. -T.: O‘qituvchi, 1995. 13- b.)

Ehtimol, bu kulfatlar shoirni vaqtincha Qo‘qondan chiqib ketishga majbur etgandir. Ehtimol, u otasi o‘lgandan so‘ng toshkentlik qarindoshlarini topish, Toshkent yangiliklarini ko‘rish, o‘rganish maqsadida safarga otlangandir. Ehtimol, bu sabablarning hammasi birgalikda uni Toshkent tomonlarga boshlab kelgandir.

(Karimov G‘. “Furqat va Muqimiy” to‘plami, -T.: 1996. 106- b.)

Xulosa qilib aytganda, ilmiy matn o‘ziga xos lug‘aviy, morfem, morfologik qurilishga ega bo‘lgani kabi, sintaktik jihatdan ham nutqning boshqa turlaridan farqlanuvchi o‘ziga xos maxsuslikka ega bo‘ladi. Ilmiy matnlarni tashkil etuvchi gaplarga mantiqiy aniqlikni, izchillikni, ilmiylikni ro‘yobga chiqarish vazifasi yuklangan bo‘ladi. Shuning uchun ilmiy matnning sintaktik birliklari, xususan, gaplarga ham mantiqiy qat’iylilik, obyektivlik xosdir. Unda ifodaning intellektual elementlariga keng murojaat qilinadi. Ilmiy isbot va xulosa, sabab va natija munosabatlari ifoda etiladi, murakkab qo‘shma gaplar, konstruksiyalar, egasi topilmaydigan gaplar ko‘p ishlatiladi. Bunda bog‘lovchi va bog‘lovchi vositalar keng qo‘llaniladi. Qaratuvchi va qaralmish birikmalari, ot-kesimlar ifodaning aniq va obyektivligi uchun xizmat qiladi. Aniq sintaksis va mantiqiy izchillikni ta’minlovchi ma’lum so‘z amal qiladi. Gaplar ko‘pincha ega bilan emas hol, to‘ldiruvchi bilan boshlanadi. Aniqlovchi sifatdosh va ravishdoshlar, uyushiq bo‘laklar keng qo‘llaniladi. Ekspressiyaning parallelizm, takror, ayrim gap bo‘laklari, ergash gaplar ma’lum maqsad uchun ajratish usullariga ham keng murojaat qilinadi. Matnlarda ko‘p uchraydigan kirish va kiritma konstruksiyalar



nutqqa his-hayajonli-ekspressivlik tusini beradi. Ilmiy matnda gap asosan darak gaplardan iborat bo'ladi. So'zlovchi (bayon qiluvchi)ning ma'lum bir pragmatik maqsadini yuzaga chiqarish vazifasi bilan so'roq va buyruq gaplardan ham foydalaniladi. So'roq gaplar o'quvchi diqqatini ifoda mazmuniga jalb qilish uchun, subyektiv baho, his-hayajon uchun xizmat qiladi. Uslubiy vosta sifatida ritorik so'roq gaplarga ham murojaat qilinadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mengliyev B. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 2009.
2. Karimov G'. "Furqat va Muqimiy" to'plami, -T.: 1996. 106- b
3. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. -T.: O'qituvchi, 1995. 13- b.
4. Alimuhammedov A., Antik adabiyot tarixi. -T.: O'qituvchi, 1999. 143- b.
5. Shayxzoda M. "Furqat va Muqimiy" to'plami. -T.: Fan, 1996, 71- b.
6. Qobulov V.K. Funktsional analiz va hisoblash matematikasi. -T.: O'qituvchi, 1996. 188- b.
7. . Muhammadiyev A.M, Umurtqasiz hayvonlar zoologiyasi. -T.: O'qituvchi, 1996. 74- 6.
8. Shoabdurahmonov Sh. "O'zbek tili va adabiyoti" jurnali, 1996, 3-son. 13-b.
9. Qabulov V.Q. Funktsional analiz va hisoblash matematikasi. - T.: O'qituvchi, 1996. 206-b.
10. Sarxoshyan G.N. Avtomobillarning tuzilishi va remonti. -T.: O'qituvchi, 1994, 77- b.
11. Bekjonov R. Yadro fizikasi.-T.: O'qituvchi, 1995. 71-75- 6.